



KONSTITUTSIYA-JAMIYAT TARAQQIYOTINING HUQUQIY POYDEVORI

Abdug'afforova Ruxsora Baxtiyorjon qizi

ruxsoraabdugafforova8@gmail.com

ANNOTATSIYA; Ushbu maqolada jamiyatda qanchalik konstitutsiyamizga bo'lgan e'tibor ,uning davlat va xalq o'rtasidagi munosabatlar belgilab qo'yilganligi ,uning tuzulishi ,ahamiyati asosiy vazifalari va albatta yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda Konstitutsiyaning o'rni muhim ekanligi haqida so'z boradi.

KALIT SO'ZLAR; Konstitutsiya ,Yoshlar ,ta'lim tizimi, huquq va erkinliklar ,xalq ,adolat va qonun ,saylovlar, referendum ,fuqaro ,davlat ,yuksalish, darslar ,seminarlar,barqarorlik.

THE CONSTITUTION IS THE LEGAL FOUNDATION OF SOCIETY'S DEVOLEPMENT

ANNOTATION; In this article ,it is discussed how much pay attention is paid to our Constitution in society ,how it defines the relationship between the state and the the human biengs ,it is structure ,significance ,main functions and of course the important role of the Constitution in shaping the legal culture of the youth.

KEYWORDS; Constitution , youth ,education system ,rights and freedom, people,justice , law, elections, referendum, citizen, state, development, lessons seminars, stability.

КОНСТИТУЦИЯ-ЭТО ПРОВОВАЯ ОСНАВА РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА

АННОТАЦИЯ; В данной статье рассказывается о том насколько велико внимание общества к нашей Конституции о том что в ней закреплены отношения между государством и народом раскрывается её структура значении основные задачи а также подёркивается важная роль Конституции в формировании правовой культуры молодёжи

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА; Конституция, молодёжь, система оброзования, права и свободы, народ, справедливость, закон ,выборы, референдум ,гражданин, государство, прогресс, уроки, семинары, стабильность.

Har bir mustaqil davlatning poydevori -uning Konstitutsiyasidir .Chunki Konstitutsiya xalq irodasini ,millat qadriyatlarini va davlatning istiqbolini mujassam



etgan eng muhim hujjatdir .U mamlakatning siyosiy ,ijtimoiy va huquqiy hayotida bosh yo'l-yo'riq bolib xizmat qiladi .O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham ana shunday tarixiy hujjat bolib ,u fuqorolarning erkinligi huquqlari va manfaatlarini himoya qilish jamiyatda adolat va qonun ustuvorligi ta'minlashga qaratilgan .Shu bois Konstitutsiya nafaqat davlat boshqaruvining asosi balki xalqning ozod va farovon hayotini kafolatlovchi buyuk qadriyatdir

Konstitutsiya -bu davlatning asosiy qonuni bo'lib ,unda mamlakatning siyosiy qonuni bo'lib ,unda mamlakatning siyosiy tuzumi ,boshqaruv shakli ,fuqoralarning huquq va erkinliklari ,davlat organlarining vakolatlari hamda ularning o'zaro munosabatlari belgilab qoyiladi .Konstitutsiya -barcha qonunlar ,farmonlar va hukumat qarorlari uchun asosiy huquqiy poydevor hisoblanadi .U har bir davlatning siyosiy -huquqiy hayotida eng oliy kuchga ega bo'lgan asosiy hujjat sifatida etirof etiladi .U jamiyatning ijtimoiy tuzilishi boshqaruv tizimi , fuqorolarning huquq va erkinliklarni belgilab beruvchi poydevor sanaladi . Shu bois jamiyatda Konstitutsiyaga bo'lgan e'tibor darajasi davlatning huquqiy taraqqiyoti va fuqorolik madaniyatining shakllanganlik ko'rsatkichlaridan biridir .Avvalo Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati jamiyatda qonun ustuvorligini taminlashda beqiyos o'rin tutadi .Fuqorolarning siyosiy faolligi ,davlat boshqaruvida ishtiroki va huquqlarini himoya qilish tizimi aynan Konstitutsiyada mustahkamlangan normalar orqali hayotga tatbiq etiladi. Shu sababli jamiyatda ushbu hujjatni chuqur o'rganish ,unga hurmat va sadoqatni shakllantirish demokratik qadryatlarning rivoji uchun muhimdir .Yoshlar o'rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish konstitutsiyaviy bilimlarni tizimli ravishda targ'ib qilish ham konstitutsiyaga bolgan e'tiborning muhim ko'rinishlaridan hisoblanadi .Ta'lim muassasalarida konstitutsiyaviy bilimlar bo'yicha darslar ,targ'ibot ishlari ,seminar va uchrashuvlar yosh avlodda huquqiy ongni rivojlantiradi.Jamiyatda Konstitutsiyaga bo'lgan e'tibor nihoyatda muhimdir ,chunki bu e'tibor nafaqat huquqiy tizimning mustahkamlanishiga ,balki fuqoralarning o'z huquq va burchlariga mas'uliyat bilan yondashishga ham xizmat qiladi .Konstitutsiyani chuqur bilgan jamiyatda adolat , barqarorlik va taraqqiyotga erishish imkoniyati yanada keng bo'ladi. Shuningdek , har bir demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri -davlat va xalq o'rtasida aniq barqaror hamda huquqiy jihatdan mustahkamlangan munosabatlarning mavjudligidir .Bunday munosabatlar Konstitutsiyada o'z ifodasini topadi .Chunki Konstitutsiyada xalq hokimyatining manbai sifatida fuqorolarning davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqini ,davlatning esa xalq oldidagi majburiyatlarni aniq belgilb beradi .Xalq hokimyatining yagona manbai sifatida e'tirof etiladi ,bu prinsip davlat hokimiyati xalq ishonchi asosida shakllanishi ,barcha davlat organlari xalq manfaatiga xizmat qilishi kerakligini ifodalaydi .Xalq esa saylovlar ,referendumlar va jamoat nazorati orqali davlat boshqaruv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi 1 Konstitutsiya -adolat va qonun ustuvorligining bosh manbai bo'lib xalqimizning erki ,huquq va manfaatlari aynan unda o'z ifodasini topadi.Davlat va xalq o'rtasidagi munosabatlarning



konstitutsiyaviy asosda belgilanib qoyilishi jamiyatda huquqiy barqarorlik va ishonch muhitini shakllantiradi . Fuqorolar o'z huquqlariga tayangan holda faol yashaydi , davlat esa o'z vakolatlari doirasida qonuniylik , tartibot va adolatni taminlaydi .Bu esa jamiyatning ijtimoiy siyosiy barqarorligi , taraqqiyoti va demokratik tamoyillarning chuqur qaror topishiga xizmat qiladi .Yosh avlodning huquqiy madaniyatini shakllantirish har qanday demokratik jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir . Bu jarayonning markazida esa Konstitutsiya turadi ,chunki davlatning asosiy qonuni, jamiyatda amal qiladigan ,barcha huquqiy me'yorlar , tamoyillar va qadriyatlarining negizi hisoblanadi .Yoshlar aynan ushbu hujjat orqali o'z huquq va erkinliklarini ,shuningdek ,jamiyat va davlat oldidagi burchlarini to'laqonli anglab boradilar .Konstitutsiyada belgilangan huquqiy me'yorlar yoshlarning shaxs sifatida shakllanishi ,o'z pozitsiyasi va qarashlariga ega bo'lishi uchun mustahkam asos yaratadi.Xususan ta'lim olish, erkin fikr bildirish ,shaxs daxlsizligi ,mehnat qilish ,ijtimoiy himoya kabi huquqlar yoshlarning jamiyatda faol fuqorolik pozitsiyasini egallashiga yordam beradi . Bu esa huquqiy ongning yuksalishiga , masuliyatli xulq - atvorning shakllanishiga olib keladi .Shuningdek ta'lim tizimida Konstitutsiya bo'yicha o'tkaziladigan darsar, seminarlar , targ'ibot ishlari yoshlar ongida qonun ustuvorligi tamoyilini mustahkamlaydi .Ular davlat tuzilishi , fuqorolik jamiyati institutlari va demokratik boshqaruv haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'ladilar .Natijada yoshlar huquqiy jarayonlarga befarq bo'lmay , jamiyat hayotida faol ishtirok eta boshlaydi.2.Konstitutsiyaning davlat mustaqilligini mustahkamlashda , huquqiy asoslarni yaratishdagi o'rni.

Xulosa qilib aytganda , Konstitutsiya jamiyat hayotining barcha sohalarida , ayniqsa yosh avlodning huquqiy ong va madaniyatini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega .Asosiy qonunimizda belgilangan huquq va erkinliklar , davlat va xalq o'rtasidagi munosabatlarning aniq belgilanishi , adolat va qonun ustuvorligi tamoyillari yoshlarning ongiga singdirilgan sari , jamiyatda barqarorlik ishonch va taraqqiyot mustahkamlanadi.

FOYDALANILAGN ADABIYOTLAR

- 1.Mirziyoyev Sh.M.Kuch Adolatda .-Toshkent ;'' Ozbekiston '' nashriyoti 2020.
2. Karimov I.A.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida .-Toshkent ;''O'zbekiston''1997